Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и методический журнал
Scientific theoretical and methodical journal
INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY
ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (1)

Original paper

# UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQA CHOLG‘ULARIGA YO‘NALTIRISHNING ZAMONAVIY ILG‘OR INNOVATSIYALARI

© O.I. Karimov[1]✉, F.N. Farmonov[2]✉
[1]Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O‘zbekiston
[2]Turkiston yangi innovatsiyalar universiteti, Buxoro, O‘zbekiston

Annotatsiya

**KIRISH**: Maqolada jahon musiqa cholg‘ulari konsepsiyasini yuqori sinf maktab repertuariga kiritish metodlari va undagi namoyandalar haqida ba’zi tarixiy ma’lumotlar o‘rin olgan.

**MAQSAD**: umumta’lim maktablarida musiqa cholg‘ulariga zamonaviy yondashuv asosida o‘quvchilarning badiiy estetik kompetensiyasini rivojlantirish.

**MATERIALLAR VA METODLAR:** tadqiqotda ta'lim muassasalarida o'qituvchilarga insonparvarlashtirishni o'rganish uchun aralash usullar tadqiqot loyihasi qo'llanildi. Tadqiqotda o‘qituvchilarning badiiy estetik kompetensiyasini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni har tomonlama tushunish uchun miqdoriy va sifat jihatidan ma’lumotlar to‘plash usullaridan foydalanildi.

**MUHOKAMA VA NATIJALAR**: odatda, musiqiy cholg'ular ijrochilik amaliyotining turli yo‘nahshlarida qo‘llanilib kelingan. Avvalo eng sodda cholg'ular yaratilib, kundalik hayot tarzida keng foydalanilganligini qayd etish joizdir. Bunday cholg'ular har bir xalqning cholg'ular dunyosida mavjud, ayni paytda ham iste'molda bo‘lib keladi. O‘zbek xalq ijrochilik amaliyotida saqlanib, qo‘llanib kelinayotgan cholg'ulardan Chang, qobiz, sibizg'i shular jumlasidandir. Bu cholg'ularni tayyorlash va ijro etish ham oddiyligi bilan ajralib turadi.

**XULOSA:** musiqa cholg’ularini shakli, turlari, tuzulishi haqidagi mavzularni talablar darajasida o’rganilsa, yosh avlodni musiqa cholg’uga bo’lgan hurmat, milliy cholg’ularimizni ardoqlaydigan, har tomonlama yetuk inson bo’lib voyaga yetishida o’zimizni munosib hissamizni qo’shgan bo’lamiz.

**Kalit so'zlar**: idiofon, Membronofon, Xordofon, aerofon, zoomorfologik, Pozomorfologik.

**Iqtibos uchun**: Karimov O.I., Farmonov F.N. Umumta’lim maktablarida musiqa cholg‘ulariga yo‘naltirishning zamonaviy ilg‘or innovatsiyalari. // Inter education & global study. 2024. №4(1). B.392-396.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПЕРЕДОВЫЕ ИННОВАЦИИ В ОБЛАСТИ ОБУЧЕНИЯ ИГРЕ НА МУЗЫКАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТАХ В ГОСУДАРСТВЕННЫХ ШКОЛАХ

© О.И. Каримов[1]✉, Ф.Н. Фармонов[2]✉

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (1)

[1]Бухарский государственный университет, Бухара, Узбекистан
[2]Туркестанский университет новых инноваций, Бухара, Узбекистан

Аннотация

**ВВЕДЕНИЕ**: В статье приводятся некоторые исторические сведения о способах введения понятия мировых музыкальных инструментов в репертуар высшей школы и их представителей.

**ЦЕЛЬ**: развивать художественно-эстетическую компетентность учащихся на основе современного подхода к музыкальным инструментам в общеобразовательных школах.

**МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ**: в исследовании использовался исследовательский проект "смешанные методы" для обучения учителей гуманизации в учебных заведениях. В исследовании использовались количественные и качественные методы сбора данных для всестороннего понимания факторов, влияющих на развитие художественно-эстетической компетентности педагогов.

**ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ**: как правило, музыкальные инструменты использовались в различных областях исполнительской практики. Стоит отметить, что в первую очередь создаются и широко используются в быту простейшие инструменты. Такие инструменты существуют в инструментальном мире каждого народа, но в то же время находятся в потреблении. К инструментам, сохранившимся и используемым в узбекской народной исполнительской практике, относятся Чанг, кабыз, сибизги. Эти инструменты также отличаются простотой изготовления и игры.

**ЗАКЛЮЧЕНИЕ:** если темы о форме, видах, структуре музыкальных инструментов будут изучены на уровне требований, мы будем воспитывать подрастающее поколение в духе уважения к музыкальному инструменту, уважения к нашим национальным инструментам, внесем свой достойный вклад во взросление как всесторонне зрелые люди.

**Ключевые слова**: идиофон, мембронофон, хордофон, аэрофон, зооморфологический, пozоморфологический.

**Для цитирования**: Каримов О.И., Фармонов Ф.Н. Современные передовые инновации в области обучения игре на музыкальных инструментах в государственных школах. // Inter education & global study. 2024. №4(1). С. 392-396.

# MODERN ADVANCED INNOVATIONS IN THE FIELD OF TEACHING MUSICAL INSTRUMENTS IN PUBLIC SCHOOLS

© Olimxo'ja I. Karimov[1]✉, Farxod N. Farmonov [2]✉
[1]Bukhara State University, Bukhara, Uzbekistan
[2]Turkestan University of New Innovations, Bukhara, Uzbekistan

Annotation


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (1)

**INTRODUCTION**: the article provides some historical information about the methods of introducing the concept of world musical instruments to the high school repertoire and its representatives.

**AIM:** to develop the artistic and aesthetic competence of students based on a modern approach to musical instruments in secondary schools.

Materials and methods: The research project "mixed methods" was used in the study to train teachers of humanization in educational institutions. The study used quantitative and qualitative methods of data collection for a comprehensive understanding of the factors influencing the development of artistic and aesthetic competence of teachers.

**DISCUSSION AND RESULTS**: As a rule, musical instruments were used in various fields of performing practice. It is worth noting that, first of all, the simplest tools are created and widely used in everyday life. Such instruments exist in the instrumental world of every nation, but at the same time they are in consumption. The instruments preserved and used in Uzbek folk performing practice include Chang, kabyz, sibizgi. These tools are also easy to make and play.

**CONCLUSION**: if the topics about the shape, types, and structure of musical instruments are studied at the level of requirements, we will educate the younger generation in the spirit of respect for a musical instrument, respect for our national instruments, and make our worthy contribution to growing up as comprehensively mature people.

**Key words**: idiophone, Membronophone, Chordophone, aerophone, zoomorphological, Posomorphological.

**For citation**: Olimxo‘ja I. Karimov, Farxod N. Farmonov. (2024) ‘Modern advanced innovations in the field of teaching musical instruments in public schools’, Inter education & global study, (4(1)), pp. 392-396. (In Uzbek).

O‘zbekistonda ijrochilik amaliyotida foydalanib kelinayotgan milliy musiqa cholg‘ularining 30 tadan ortiq turlari mavjud. Shulardan 18 nomdagi musiqiy cholg‘ular XX asrning 40-yillaridan keyin professor A.I.Petrosyans boshchiligidagi bir guruh mutaxassislar va soz ustalari bilan hamkorlikda takomillashtirilgan musiqiy cholg‘ular bo‘lib, konsert sahnalarida yakkanavozlik sifatida, shu bilan birga, asosan orkestr va ko‘p ovozli ansambllarda foydalanish uchun mo‘ljallangandir. Bu muqaddam mavjud bo‘lgan milliy musiqiy cholg‘ularning shaklini yiriklashtirish yoki kichikroq ko‘rinishga keltirish asosida yaratilgan bo‘lib, o‘sha cholg‘u oilasini yaratish ustida olib borilgan tajribalar edi, natijada nay, chang, rubob, dutor, g‘ijjak cholg‘ularining oilasi dunyoga keldi.

A.I.Petrosyansdan keyingi o‘rinda san’atshunoslik olimi professor, Said Bolta-Zoda Saidiy tomonidan milliy cholg‘ularimizning jahon standartlariga xos ilk marotaba konsepsiya si ishlab chiqildi. Ushbu olim Markaziy Osiyo va yaqin sharq davlatlarining ilk (Cholg‘ushunoslik “Morfologiya”si asoschisi) hisoblanib, quyidagicha ta’riflanadi;


CC BY NC ND

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (1)

1. Idiofonlar: (bir tonli jarangli, shovqinli va dag‘al nomusiqaviy cholg‘ular), bular; qayroq, qoshiq, zanglar, g‘o‘lachalar, Xitoy Tim-Tim diski, uchburchak, bubenshik, karobka, safoil, treshyotka, kastonetto, tarelkalar, xay-xet, changqo‘biz, zanjir, kamerton-H, taqqildoq, kepchik, noskadi va boshqalar.

2. Membronofonlar: ( teri yoxud plastik tortilgan, keng tovush to‘lqinli urma zarbli cholg‘ular), bular; do‘l-nog‘ora, qo‘sh-nog‘ora doyra, tablak, doul, Yevropada Litavra, kichik baraban, katta baraban, urma-zarbli ustanovka, tabla bas va tabla usul, mridangam, buben va boshqalar.

3. Xordofonlar: (yarim ton yuqori yoxud pastga xromatik sozlanuvchi cholg‘ular, “mizrob, noxun, noxunsher, tirnama, chertim, urma torli va kamonli”), bular; urma-torli changlar va qonun, rubob prima va oilasi, qashqar rubob,afg‘on rubob, al-Ud, dutor al’t, soprano, sekunda, dutor bas va kontrabas, tanbur va sato, shashtor, g‘ijjak, g‘ijjak al’t, skripka, violonchel, skripka kontrabas, Sitor, Gitara, pionino, rayal, organ, bayan, akkordeon, arfa, ksilofon, vibrofon, membronofon, chig‘g‘ak, xuchir va boshqalar.

4. Aerofonlar: ( nafasli-puflama va damli musiqa cholg‘ulari), bular; nay pikalo, nay, sunray, bo‘lamon, qo‘shnay, karnay, sharqda dunay, yevropada-pikalo, fleyta, gabboy, klarnet, truba, karnet, ingliz-faggot, saksafon, vol’torna, tronbon, bariton, tuba, bassuta va boshqalar.

5.Zoomorfologik: (hayvon shoxlari, fil suyagi, parranda qanoti, dengiz chig‘anog‘idan yasalgan cholg‘ular, cholg‘uni chalish uchun foydalanilgan patlar hamda ichakdan tayyorlanadigan parda va torlar), bular; suyak-nay (cho‘pon-nay, burgut qanotidan yasalgan nay), burg‘u (yirtqich yovvoyi tog‘ buqqasi “Qo‘tos”) rakushka-(dengiz chig‘anog‘i) va boshqalar.

6. Pozomorfologik: ( sovg‘oti, suvenir shakllarda tayyorlangan nomusiqiy mul’ti – komplek miniatюralar), bular: ayiqcha, bul-bulcha,churrak, qichqiriq va ularning ergologiyasiga; gild, tosh, plastmassa, shisha, tillo, kumush, titan, bronza, temir turlari, mis, cho‘yan, rangba -rang tabiiy toshlar hisoblanadi.[6.24,37]

O‘zbek xalqi ajdodlarninng musiqa sarchashmalari O‘rta Osiyo hududida yashagan qardosh xalqlar ijodi bilan mustahkam bog`langan. Buюk “Avesto” va Kushoniylar imperiyasidagi maktablarda asosiy markazlardan biri 1.darbori (Eron. er.avv 5-6 asr), 2. Dabiriston (Buxoro.er.avv-4asr ), Buxoro filiallarida Buyuk Xorazm imperiyasi(2 asr), keyinchalik Tohariston va Farxangiston maktablari etakchilik qilganlari. Buxoro markazlashgan kuchli musiqa san’ati maktabidan tashqari diniy an’analar etakchisi ham bo‘lgan. Xitoydan tortib Sharq va Yevropa davlatlari talabalari tahsil olganlar, bunda; Buxoro Yo‘nalishida 1-saroy ajdodiy musiqa san’ati (hozirgi shashmaqom). 2. xalq cholg‘ulari uslubi, 3.Vokal yslubi, 4.raqqos va raqqosalar uslubi, 5.Masharaboz va sirk uslubi, 6.Harbiylar musiqasi uslubi, 7.Dehat (qishloq havastmandlar)uslubidan iborat bo‘lgan. 8.Folklor uslubi. Vokal uslubi ikkiga bo‘lingan professional va diniy uslub. Xullas; Jahon globallashuvi sharoitida qaimgi davr islomgacha bo‘lgan maktablarimiz genezisini tarixiy o‘rganish, bosqichlaridagi an’analarni tahlil qilish, Ulug‘ siymolarning ustoz-shogird

ISSN 2992-9024 (online)
2024, №4 (1)

tizimi shaklida og'zaki ijodiyotning professional va folklor uslublarini tiklash va maktab repertuarini boyitish asnosida zamonaviy ilg'or pedagogik tajribalarni ishlab chiqish va tadbiq etish, davr taqazosidir.

Cholg'ushunoslik genezisi misolida eng qadimgi va sevimli cholg'ularimiz ilk "nog'ora" va "doyra" cholg'ulari tadqiqotdan o'rin olganligi bilan boshqa qator cholg'ularimizni ham shu tarzda maktablarda ilg'or innovasiyalar orqali tanishtirib, o'rgatib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. У.Ш.Бегимкулов Педагогик таълимда замонавий ахборот технологияларини жорий этишнинг илмий-назарий асослари. Монография. -Т.: Фан, 2007.
2. O.Ibrohimov, G'.Xudoev,1-7-sinf Musiqa darsligi, "O'qituvchi" nashriyoti, Toshkent-2018 yil
3. Ишмухамедов Р., Абдуқодиров А., Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. -Т, Истеъдод, 2008, 180 бет.
4. Кабалевский Д.В. Как рассказывать детьям о музыке? М.:Просвепение,1994.
5. Michael Henderson, Geoff Romeo. Teaching and digital technologies (Big issues and critical questions). Cambridje University Press. 2015.
6. Saidiy S. O'zbek musiqasi tarixi. Darslik-1 qism /;, "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2020 yil.
7. Saidiy S. O'zbek musiqasi tarixi. Darslik-2 qism /;, "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2020 yil.
8. Saidiy S. Jahon musiqasi tarixi. Darslik /;, "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2020 yil.
9. Saidiy S. Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish asoslari.Darslik/,; "Musiqa nashriyoti", Toshkent-2016 yil.
10. ТД Мухамедов. Способы и средства развития музыкальных способностей учащихся на уроках музыки - Проблемы науки, 2021
11. SU Norova, T Mukhamedov. Educational Process Legislation and Principles and their Use in Student Practice- International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020

## MUALLIF HAQIDA MA'LUMOT [ИНФОРМАЦИЯ ОБ АВТОРЕ] [AUTHORS INFO]

✉**Karimov Olimxo'ja Islomovich** o'qituvchi, [**Каримов Олимхужа Исломович** преподаватель], [**Olimxo'ja I. Karimov**, teacher,]; manzil: O'zbekiston, Buxoro sh. M.Iqbol ko`chasi 11-uy [адрес: Узбекистан, Бухара, ул. М.Икбол дом 11], [address:Uzbekistan, Bukhara city M.Iqbol street 11].

✉**Farmonov Farxod Nurmatulloyevich** magistrant, [**Фармонов Фарход Нурматтулоевич** магистр], [**Farxod N. Farmonov**, master,]; manzil: O'zbekiston, Buxoro sh. M.Iqbol ko`chasi 11-uy [адрес: Узбекистан, Бухара, ул. М.Икбол дом 11], [address:Uzbekistan, Bukhara city M.Iqbol street 11].


CC BY NC ND